

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIY
FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari	33
--	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	40
--	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari	43
---	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari	62
--	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat	67
---	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari	90
--	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili	93
--	----



UO'K: 297.4+1(09)+929(575)

XOJA MUHAMMAD PORSONING IRFONiy QARASHLARIDA INSONNING MA'NAViy KAMOLOTI VA ONTOLOGIK MOHIYATI**ДУХОВНОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЧЕЛОВЕКА И ОНТОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ В ИРФАНИЙСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ХОДЖИ МУХАММАДА ПОРСО****THE SPIRITUAL PERFECTION OF THE HUMAN BEING AND ONTOLOGICAL ESSENCE IN THE MYSTICAL VIEWS OF KHWAJA MUHAMMAD PARSA****Gulamova Munisxon Mahmudovna** 

Buxoro davlat universiteti Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası doçenti v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada mashhur naqshbandiy mutasavvifi Xoja Muhammad Porsoning irfoniy qarashlari doirasida insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'li va uning mavjudlikdagi (ontologik) mohiyati tahlil etiladi. Muallifning ta'limotida inson komilligi, qalb pokligi, nafsni tiyish va ilohiy haqiqatga yetishish bosqichlari asosiy e'tibor markazida turadi. Tadqiqotda Porsoning irfoniy-falsafiy qarashlari orqali insonning ruhiy yetuklik sari yo'naltirilishi, tasavvufdagi "komil inson" tushunchasining chuqur tahlili va bu boradagi asosiy tushunchalar sharhlanadi. Shuningdek, maqolada mutasavvifning g'oyaviy merosi bugungi axloqiy va ma'naviy tarbiya jarayonlari uchun ham dolzarb ekani ta'kidlanadi.

Аннотация

В данной статье анализируется путь духовного совершенствования человека и его онтологическая сущность в контексте ирфанийских взглядов знаменитого нахшбандийского суфия Ходжи Мухаммада Парсо. В центре внимания учения мыслителя стоят идеи совершенства человека, очищения сердца, подавления нафса и ступени достижения Божественной Истины. В исследовании рассматриваются ирфанийско-философские взгляды Парсо как ориентир к духовной зрелости человека, а также подробно анализируется понятие «совершенного человека» в суфизме и его основные концепции. Отдельное внимание уделяется актуальности идейного наследия суфия для современного процесса нравственного и духовного воспитания.

Abstract

This article analyzes the path to spiritual perfection and the ontological essence of the human being within the framework of the mystical ('irfani) views of the renowned Naqshbandi Sufi, Khoja Muhammad Parsa. In the author's teachings, central attention is given to the perfection of the human being, purity of the heart, control of the ego (nafs), and the stages of attaining Divine Truth. The study explores how Parsa's mystical-philosophical concepts guide the human soul toward maturity, providing an in-depth analysis of the Sufi notion of the "Perfect Human" (al-Insān al-Kāmil) and key related ideas. Furthermore, the article emphasizes the relevance of the Sufi thinker's spiritual legacy for contemporary moral and ethical education.

Kalit so'zlar: Xoja Muhammad Porso, irfon, tasavvuf, komil inson, ma'naviy kamolot, ontologik mohiyat, nafs, qalb pokligi, ruhiy yetuklik, naqshbandiya, ma'naviyat falsafasi, so'fiylik.

Ключевые слова: Ходжа Мухаммад Порсо, ирфан, суфизм, совершенный человек, духовное совершенство, онтологическая сущность, нафс (эго), чистота сердца, духовная зрелость, нахшбандия, философия духовности, суфийство.

Key words: Khoja Muhammad Parsa, 'Irfān (gnosis), Sufism, Perfect Man, spiritual perfection, ontological essence, nafs (ego), purity of the heart, spiritual maturity, Naqshbandiyya, philosophy of spirituality, Sufi thought.

KIRISH

Tasavvuf inson va uning kamoloti haqida bahs yurituvchi va mukammal ta'limotlardan biri hisoblanadi. Tasavvuf tariqatlari zamirida insonni ruhiy va jismoniy tarbiyalash, qalbini poklash, nafsini jilovlashga o'rgatish, kasb-hunar, mehnat orqali halol rizq topishga undovchi g'oyalar asrlar davomida o'z ma'no mohiyatini yo'qotmadi. Olam va odam munosabatlari, inson tabiati, ahvoli va toifalari xususidagi bahs munozaralarni kengaytirildi. Tasavvuf namoyandalari juda ko'plab kitoblari ta'rif etilarki, ularning xilma-xilligi, falsafiy, tasavvufiy, nazmiy tusda bo'lishidan qat'iy nazar inson haqidagi qarashlarning hali yetarlicha o'rganilmaganligidan yoki insonning murakkab xilqat sifati uni bilishga imkon bermayotganidan dalolatdir. Shu ma'noda, ushbu bobda Naqshbandiya tariqatining

FALSAFA

nazariyotchi olimi mutasavvif Xoja Muhammad Porso ma'naviy merosidagi inson tushunchasi va uning mohiyatini irfoniy falsafiy tahlil qilishga harakat qilingan. Shuningdek, mutasavvifning boshqa tasavvuf allomalaridan farqli rivishda inson muammosiga qaratilgan qarashlarini o'z asarlarida bayon qilgan. Uning "Risolai qudsiya", "Faslul xitob" asarlarida insonga berilgan ta'rif, uning toifalari, xislatlari, jamiyatdagi o'rn, burchi masalalari tahlilga tortilgan. Xoja Muhammad Porso inson borlig'i uning tabiiy va ma'naviy olami xususida fikr yuritadi. Albatta, mutasavvifning fikrlari islomning Qur'on va hadis kabi muqaddas manbalariga asoslanadi. Bunda uning Qur'on ma'rifatini anglash, tasavvufning insonni olam ichidagi kichkina olam sifatidagi "olam al-Asg'ar" g'oyasi atrofidagi masalalardagi pozitsiyasi, inson mohiyatiga oid qarashlari falsafiy-irfoniy tahlil etilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Inson so'zi-arabcha "نسيان" "nisyon" yoki "نسي" "nasiya" so'zlari o'zagidan iborat bo'lib "unutuvchi" degan ma'noni anglatadi. Inson haqidagi qarashlar juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Olamning yaralishi, odamning paydo bo'lishi, odamning yaratilishi, olam va odam munosabatlari xususidagi turli g'oyalar inson haqidagi ta'limotlarning barcha davrlarda dolzarb muammo bo'lib kelganligini, har bir ta'limot o'z yondashuvlaridan kelib chiqqanligini inobatga olinsa, insonni o'rganish uslubi hamda yo'llarining ham turlicha bo'lganligini ko'rsatadi. Aslida insonni falsafiy tushunishning yagona andozasi mavjud emas. Shu nuqtai nazardan insonning mohiyatini 1) notirik tabiat bilan aynanlashtirish; 2) tirik tabiat bilan aynanlashtirish; 3) kosmos bilan aynanlashtirish; 4) sotsial muhit bilan aynanlashtirish; 5) boshqa ob'ektlar va sub'ektlardan farqlash; 6) "meni"dan farqlashidan iborat o'ziga xos tendensiyalardan izlash kerak.

Qadimgi Hind va Xitoy faylasuflari insonni tana bilan jonning qo'shilishidan iborat birlik, jon tanani tark etib, ruhga aylanib turadi, ruh esa o'lmas deb tushuntirgan bo'lsa, qadimgi Eron va Turonda inson borlig'i olam borlig'i bilan bevosita aloqador, inson borlig'ida olam borlig'i o'z ifodasini topgan, olam borlig'i to'rt unsur tuproq, suv, olov, havodan tashkil topgan, olam borlig'ining murakkab shakllaridan biri bo'lgan inson tabiati ham, shubhasiz, o'sha to'rt unsur bilan bog'liq ekanligi haqidagi g'oyalar mavjud bo'lgan. O'rta asrlarda insonning muhim xususiyati uning "Allohga o'xshashidir", degan fikrga ham borgan ta'limotlar, qarashlar ham paydo bo'lgan. Allohni olamdan tashqarida transcendent ekanligi haqidagi qarashlar shakllangan. Aytish mumkinki, hamma zamonlarda tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida olam va odam munosabatlari, inson tushunchasi uning mazmun mohiyati markaziy muammo bo'lib kelgan. U nafaqat falsafaning boshqa fanlarning ham muammosi sifatida o'rganilgan. Yunon faylasuflari inson kosmosning bir bo'lasi, o'ziga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etgan "mikrokosmos" ekanligini uqtirgan edi. Shuningdek, inson bilan olamdagi boshqa tirik mavjudotlar o'rtasida jiddiy farq borligi, inson-"aqli ijtimoiy mavjudot" ekanligini asoslashga uringanlar. Yangi davr falsafasi inson-ijtimoiy mavjudot, yevropa ayniqsa, nemis klassik falsafasi inson kamolotida onglik, aqliylik (ratsionalizm) hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini e'tirof etdilar. Ba'zan insonning inson bo'lib shakllanishida his-tuyg'u, aql ishtirok etmasligi (irratsionalizm) asosiy rol o'ynashini targ'ib etuvchi ta'limotlar shakllandi. Faylasuflarning bir toifasi insonning inson bo'lib shakllanishida ijtimoiy muhit, ayniqsa, mehnat hal qiluvchi ahamiyatga ega degan o'z qarashlarini bayon qildilar. Inson borlig'ining tirik tabiatdan tabiiy rivojlanishning butunlay yangi, yuksakroq darajadagi bosqichi ekanligi bilan ajralib turishi, insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi bu "sof borliq" turli davrlarda turli mutafakkirlar tomonidan jon, ruhiyat, ong, tafakkur, ideal va boshqa nomlar bilan atalgan. Falsafa tarixida inson individualligining ichki, yashirin holatini aks ettiruvchi "jon" va "ong" tushunchalari tahliliga maxsus e'tibor qaratilgan. Protagor (mil. av. 490-420 yy) miloddan avvalgi V asrda "inson barcha narsalar mezonidir, u mavjud narsalarning mavjudligini, yo'q narsalarning esa yo'qligini belgilaydi", Suqrot (mil. av. 469-399 yy) inson o'z joni faoliyatini boshqara oladi, shu sababli dunyoni tushunish yo'li o'z-o'zini bilish orqali o'tadi, deb hisoblagan. Platon birinchi bo'lib jon haqidagi yaxlit ta'limotni yaratdi. U odamlar jonining qandayligiga qarab ularni har xil tiplarga ajratdi. Keyingi davrlarda R.Dekart, Ibn Arabiy, A.Navoiy, A.Jomiy, J.Rumiy, F.Attor, B.Naqshband, I.Kant, I.G.Fixte, J.P.Sartr, M.Xaydegger va boshqa mutafakkirlar insonning ma'naviy negizini birinchi o'ringa qo'yib, uning ongi, ma'naviy dunyosi va bilish qobiliyatlarini o'rganish ishiga salmoqli hissa qo'shganlar.

Insonning individuallik borlig'i xususidagi fikrlarni A.Bergson (1859-1941yy.)ning quyidagi so'zlaridan topish mumkin: "Mavjud barcha narsalar orasida eng ishonchlisi va bizga ko'proq ma'lum bo'lgani, hech shubhasiz, bizning o'z mavjudligimizdir, zero bizda boshqa narsalar haqida mavjud tushunchalarni sirtqi va yuzaki deb hisoblash mumkin, holbuki o'z-o'zini bilish ichki, teran bilishdir".

Demak, insonning tana va ruh bilan uzviy bog'langanligi tamoyili birinchi o'rinda turadi. Inson mavjudligi tananing tabiiy-jismoniy tuzilma sifatidagi borlig'i inson o'limidan keyin ham ma'lum muddat mavjud bo'ladi, ya'ni o'z borlig'ini muayyan darajada saqlaydi. Individual borliq ma'nosidagi individual ruh, ong mavjud bo'lmaydi. Ularning yo'qolishi muayyan insonning o'limini, individuallik yo'q bo'lganini bildiradi.

Shaxs- insonning uni qurshagan boshqa odamlar tomonidan qanday idrok etilishi, tavsiflanishi va baholanishini aks ettiradigan ijtimoiy hodisa. Shaxs faqat jamiyatda, o'ziga o'xshash odamlar bilan muloqot qilish, o'tgan avlodlar to'plagan tajriba va bilimlarni, o'ziga qadar yaratilgan qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish orqali shakllanadi. O'ziga xos ijtimoiy "qiyofa"ga ega bo'ladi.

Tadqiqotchi G. Yunusova "odam tabiatidagi tabiiylik va ijtimoiylikning o'zaro nisbati haqida gap borganda, ulardan birini ideallashtirish yomon salbiy oqibatlariga olib kelishini e'tiborga olish kerak. Sosial darvinistlar odam naslini o'zgartirish orqali odamning insonga aylanish jarayonini tezlashtirish mumkin desalar, marksistlar ijtimoiylikni birinchi o'ringa qo'yib, undagi biologik omillar rolini pasaytirishga urinadilar. Har ikki qarash ham ijtimoiy taraqqiyot va inson kamoloti uchun zavol bo'lishini tarixiy jarayonlar tasdiqlaydi. Demak, odamzot biologik va ijtimoiy mohiyatlar birligida mavjud bo'ladi, ammo ijtimoiy mayllarning ustuvor bo'lib borishi uning tabiatidagi biologik imkoniyatlarning voqelikka aylanishini ta'minlaydi",-deb ta'kidlaydi.

Odam va inson to'g'risidagi bahslar insonning mohiyatini uning xususiyatlarini ochishga xizmat qilish bilan birga yondashuvlarda bir yoqlamalik yoki mutlaqlashtirish holatlarini keltirib chiqardi. Natijada, biologizm, sotsiologizm va psixologizm kabi yo'nalishlar insonni o'z qarashlari doirasida o'rgangan ta'limotlarning shakllanishiga ham olib kelgan. Falsafada bahs munozaralarga keng o'rin bergan odam va olam, inson va jamiyat masalalari islom ilmlari taraqqiyotida ham ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Qur'on ilmlari, hadis ilmlari, kalom, tasavvufda mazkur mavzular yanada chuqurroq va kengroq bahs munozaralarga yo'l ochdi.

Tadqiqotimizda qo'yilgan muammo bo'yicha Naqshbandiya ta'limoti va boshqa Movarounnahr, Xuroson tasavvuf maktablari namoyandlari, ulamolarning shu masalaga qartilgan qarashlari, fikr mulohazalari ham tahlil etildi. Chunonchi, tasavvuf va uning tariqatlari inson kamoloti, tabiat va jamiyatdagi o'rnini aniqlash bo'yicha ko'plab qarashlar, ta'limotlarning shakllanishiga zamin hozirlagan. Shu ma'noda, Xoja Muhammad Porso "Faslul-xitob" ("Qat'iy qaror") asarining "Insoning vujudga kelishi, xatti-harakati va ahvoli", "Inson bir daraxtki, Alloh uni bir erkak rahbardan yaratganligi haqida", "Odam avlodining loyi yerning barcha joylaridan olinganligi haqida", "Ruhning badanga taalluqi ishqning taalluqi kabi", degan fasllarida inson va uning mohiyatiga oid fikr va qarashlari bayon etilgan.

Xoja Muhammad Porso o'zining "Faslul-xitob" asarida shunday yozadi: "Mavjudotni paydo qilishdan maqsad va olamni boqiy qilishdan ko'zlangan murod uning vositasi bilan qalblarda yaxshilik va qobillikni ekishdir". Albatta, mutasavvifning qarashlari muqaddas islom dini manbalari asosida shakllanganligiga shubha yo'q. Har aytilgan so'z iboraning mazmunida olamning yaratilishi, yaratilgan barcha narsalarning sababi mavjudligini anglashga undovchi g'oyalar o'z aksini topgan. Yuqorida keltirilgan iqtibosga e'tibor berilsa, fikrimiz yanada oydinlashadi. Zero, olamning yaratilishidan maqsad hamda uning boqiyiligini ko'zlash birinchidan uning yaratuvchisi borligini bilish, ikkinchidan uning vositasida Alloh o'zining mavjudligini namoyon qilganligini anglash, uchinchidan shu mavjudotlar ichida tanlangan va hamma narsa uning uchun yaratilganini tafakkur qilish qobiliyatiga ega, ongi, aqli shuuri bilan robbiysini tanuvchi va uni zikr qiluvchi insonni yaratgani hamda barchasini unga bo'ysundirib qo'ygani o'z ifodasini topgan. Insonning qalbini yaxshilik va qobillik urug'larini ekish bu orqali esa, uning olamga yaratilishiga muhabbatini ziyoda qilish bilan o'z yaratuvchisini zikr qilishni, shukr qilishni uqtiradi. Mutasavvif Qur'oni karimning "Esla, vaqtiki Robbing farishtalarga: "Men yer yuzida xalifa qilmoqchiman", "Jin va insonni faqat Menga ibodat qilishlari uchungina yaratdim", degan mazmundagi oyatlarning insonni aziz va mukarramligini, butun borliq hamma narsa uning uchun yaratilganini, yer yuzidagi mavjudotlarning ulug'i, Allohning xalifasi inson ekanligi hamda uni o'zi uchun yaratganini e'tirof etilishining ma'rifatini bayon qiladi.

Abdurahmon Sulamiy "Tasavvuf va uning haqiqati haqida muqaddima" asarida inson tushunchasining diniy mazmun mohiyatiga e'tibor qaratadi. Bunda Payg'ambar (s.a.v) ning "Insonning karami -dindir, uning muruvvati aqlidir, obro'si xulqidir", -degan hadislarini keltirib o'z fikrlarini bayon qilgan. Uning tahliliga ko'ra inson yuqori martablarga ya'ni insoniylik martabalariga minnatni tark etish va nafsni qurbon qilish bilan yetishadi. Shuningdek, orifning dastmoyasi

FALSAFA

xaloyiqqa mehr-muhabbatli bo'lish, odamlar bilan murosqa qilish, ularning xatolarini kechirish va ularga mehribonlik qilishda karamli bo'lish muhim sanaladi.

Xoja Muhammad Porsoning asarlariga ayniqsa, "Fasl al-Xitob", "Tahqiqot" ga tayanib insonga bergan ta'riflarini kuzatish mumkin. Aytish mumkinki, uning dunyoqarashi asosi, g'oyaviy manbalari Qur'on va Sunna shundan kelib chiqib Qur'onda inson ba'zi o'rinlarda ulug'langan bo'lsa, ba'zi joylarda mazammatal etilgan. Ya'ni, oyatlarda inson ham yaxshi va ham yomon, ham go'zal va ham buning aksidir. Masalan: Ulug'langan inson "mamduh inson", mazammatal etilgan inson esa "mazmum inson" sanaladi. Qur'onning baqara surasi 34-oyatida "Inson- masjud al-Maloyik" Inson maloyiklar sajdagohidir.

Inson-Alloh taoloning tanlangan va hidoyatal etilgan mavjudot. Insonning yaralishi tasodifiy hodisa emas, balki uning yaralishida Parvardigorning hikmati yashiringan. U Parvardigor tomonidan tanlangan va hidoyatal etilgan zotdir. "Inson ilm sohibi". Tasavvuf mutafakkirlarining kosmologik ta'limoti ("Ofo va anfas") ga ko'ra odamning suyagi tog'larga, tomirlari daryolarga, terisi va go'shti Yerga, boshi va miyasi samoga, ruhi esa Mutlaq Ruhga o'xshaydi. Olamning zo'hiru botini insonning zo'hiru botiniga, olamning bepoyonligi uning xayoliga, yo'qlik uyqusiga, borlik uyg'oqligiga, yilning to'rt fasli inson umrining to'rt davri – bolalik, yoshlik va qarilikka o'xshatiladi. Olamning to'rt unsuri – tuproq, olov, havo va suv inson vujudining tarkibida ham bor: quloq – tuproq, ko'z – olov, burun – havo, og'iz – suv. Demak, "inson kichik olam" sifatida yirik olamning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Muhammad Porso qarashlariga ko'ra, inson aql, zakovat, kuchli iroda, hissiyot, sezgilar, nutqqa egadir. Ruhiiy ma'naviiy jihatdan inson nihoyasizdir. Chegarasiz inson ruhiyati moddiy olamda kuzatiladigan fazo, makon va vaqtga bog'liq emas. Inson jismidagi hissiy quvvatlar: ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'mni his etish, shahvatiy his uni tashqi olam bilan bog'latib, jismoniiy hayotining ehtiyojlariniga ta'minlashga xizmat qiladi. Xoja Muhammad Porsoning antropologik ta'limoti o'ziga xos ahamiyat kasb etib, insonni avvalo mikroolam sifatida talqin etadi.

Mutasavvif olim insonni monistik qarashlar doirasidagi tavhid g'oyasidan chetga chiqmasdan dualistik yondashuv asosida o'rganishni taklif qiladi. Uning qarashlarida inson bir butun yaxlitlikka ega borliqki, u moddiy olamning eng takomillashgan qiyofasi bo'lishi bilan birga o'zida nomoddiy borliqni (ruhiy-ma'naviiy) yuksaltira oladigan xususiyatli mavjudlikdir. Inson shu jihatdan ruh va moddadan iborat. Tana va ruh birligi muhim bo'lgan o'ziga xos borliqdir. Borliqdagi barcha mavjud narsalar o'ziga xos xossalarga, yashash va takomillashish xususiyatiga ega bo'lgani kabi, inson ham bundan mustasno emas. Uning ma'naviiy yuksalish, kamoltga erishish imkoniyatlar aynan tasavvufda o'ziga xos tarzda asoslanadi.

Xoja Muhammad Porso ta'limotida inson olamning markazida turuvchi alohida nuqta, butun olam mavjudotlar e'tibor jihatdan unga qaratilgan. Olamdagi o'zgarishlar, hodisalar, takomillashuv barcha-barchasi, Haq va uning ismi, fe'li, qudrati, hikmati inson orqali amalga oshadi. Uning fikriga ko'ra, inson Alloh tomonidan yaratilgan bo'lib, to'rt unsurdan tashkil topgan. Bu to'rt unsur tuproq, suv, bod (havo) otash (olov) dir. Bu unsurlar inson qolibda jamlangan. Mutasavvif olim bu unsurlarning tartib bilan joylashganini va ular orasida ruhning alohida o'rni borligini ta'kidlaydi. Uning bayon etishicha, ruh bor ammo jasadda degan ma'noni anglatmaydi. Shuningdek, alloma insonni o'rganishda uning ma'naviiy negizlarini ongi va ma'naviiy bilish qobiliyatini o'rganishga e'tibor qaratishni ma'qullaydi. U sof e'tiqoddagi ta'limotidan kelib chiqib, insonning yaratilishi haqidagi fikrlarini diniy-falsafiiy tusda bo'lsa-da tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, inson noqis ya'ni, nuqsonlidir. Birinchi nuqson insonning "banda" ekanligi. Ikkinchidan, "hastiyi vay bi vay niyst balki ofarinisht" "Insonning borlig'i Alloh borlig'ining o'zidan emas balki U yaratgan, yaratilmish" dir. Uchinchidan, u nuqsonlardan avvalrog'i uning "johil" ("bilimsiz edi") ligidir. Agar inson payg'ambar yoki siddiq bo'lsa u nuqsonlardan poklangan. Haqning ilmi benihoyat ekanligini anglatadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Xoja Muhammad Porsoning odamning yaralishi va inson haqidagi qarashlari Qur'on ma'rifatiga asoslangan;

Mutasavvif olim inson-ruh, jism va nafsdan iborat yaxlit tizim bo'lib, katta olamni o'zida mujassam etgan kichkina olam yoki "olamul-asg'ar" deb bilgan;

Xoja Muhammad Porso insoning sifatiiy o'zgarishlari uning qalbi orqali amalga oshadi. Uning kamolotini ta'minlovchi ham qalbidir.

Xoja Muhammad Porso komillikda Muhammad haqiqati kul (jomea) va asldir. Boshqa har qanday komillik juz (bo'lak) far'iy ya'ni, undan kelib chiqadi, deb hisoblaydi;

Xoja Muhammad Porso qarashlariga ko'ra, inson aql, zakovat, kuchli iroda, hissiyot, sezgilar, nutqqa egadir. Ruhiiy ma'naviy jihatdan inson nihoyasizdir. Chegarasiz inson ruhiyati moddiy olamda kuzatiladigan fazo, makon va vaqtga bog'liq emas. Inson jismidagi hissiy quvvatlar: ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'mni his etish, shahvatiy his uni tashqi olam bilan bog'lab, jismoniy hayotining ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qiladi;

Xoja Muhammad Porso o'z asarlari orqali nafaqat naqshbandiylikni mustahkamlash balki, uni umumislomiy va umuminsoniy ta'limot darajasiga ko'tarishga o'z hissasini qo'shgan allomadir. U xojagonlarning zikr xususidagi fikr va g'oyalarini tahlil qilib, uning asoslari va haqiqatlarini bayon qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бергсон А. Творческая эволюция. – М.; СПб., 1914. – С.1.
2. Хожа Муҳаммад Порсо. Фаслу-л-хитоб. Қўлёзма. Таржима Н.Б. –Бухоро: Когон, нақшбандия тариқати музейи фонди. Инв.42.-Б.398.
3. Муҳаммад Порсо. Фаслу-л-хитоб. Қўлёзма. (Таржима Н.Б.) –Бухоро: Когон, нақшбандия тариқати музейи фонди. Инв.42.-Б.736.
4. Шайх Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содиқ.Тафсири ҳилол.Биринчи жуз. Бақар сураси 30- оят.-Тошкент, Шарқ, 2008.-Б. 33.
5. Абдурахмон Сулабий.Тасаввуф ва унинг ҳақиқати ҳақида муқаддима.Т.: "Hilonashr", 2020.-Б.75-76.
6. Ал-Фаробий. Фозил шаҳар аҳолиси. -Т.: Шарқ, 1999.- Б. 69
7. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Т.: "Истиқлол", 1999. -Б. 34.
8. Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Тарж. Ҳаққулов И. – Тошкент, 2004 –Б.90.
9. Хожа Муҳаммад Порсо. Фасл-ул-хитоб би вусул-ил аҳбоб. Инв. 42.1331.-Б.10.
10. Абдурахмон Сулабий. Тасаввуф ва унинг ҳақиқати ҳақида муқаддим.-Токент: Ҳилол наш, 2020.-Б.74.